

ONA TILIMIZNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Po'latova Dilnoza

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 31-sonli maktab ona tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tilining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda ona tilining milliy o'zlikni shakllantirish, ma'naviyatni yuksaltirish hamda ta'lim tizimidagi roli yoritiladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida ona tilining mavqeini saqlash, uni zamonaviy axborot makonida rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada yosh avlod tarbiyasida ona tilining ahamiyati asoslab berilib, uni asrash va rivojlantirishning dolzarbligi ilmiy jihatdan bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, milliy o'zlik, ma'naviyat, globallashuv, til siyosati, yoshlar tarbiyasi.*

Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Ona tili milliy o'zlikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Til orqali xalqning urf-odatlar, an'analari, mentaliteti va tarixiy tajribasi avloddan-avlodga o'tadi. Agar til zaiflashsa, milliy qadriyatlar ham asta-sekin yo'qola boshlaydi. Shu bois ona tilini asrash va rivojlantirish millatni asrash bilan tengdir. Til millatning o'ziga xosligini namoyon etadi va uni boshqa xalqlardan ajratib turadi. Ona tiliga bo'lgan hurmat milliy g'urur va iftixorni mustahkamlaydi.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A. Navoiy bobomizga tegishli "Ko'ngil qulfi mahzanining kalitin so'z bil, Va ul qulfning kalitin so'z bil". Inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir.

O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalasa bo'ladi. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor.

Bilamizki, bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, "Til-millat ko'zgusi", "Til-ma'naviyat ko'zgusi", "Til-millatning bebaho boyligi" va shu kabilardir.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O'zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi.

Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Istiqlool yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bilamizki, ona tilini o'rganish tarixi sakkizta davrga bo'lib o'rganiladi. Masalan, birinchi davrni oladigan bo'lsak, bu davr O'rxun – Enasoy yodgorliklari davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yozuvlar qoyatoshlarga bitilganligi sababli tosh bitiklar deb ham atalgan. Turk yodgorliklari sayrgohlarda odamlar gavjum joylarda qo'yilgan. Bundan ko'rinadiki bu yozuvlarni o'qiy olgan xalq savodli bo'lgan. Bundan ko'rinadiki ona tilimiz o'sha paytda ham oz bo'lsada o'zining mavqeyiga ega bo'lgan ekan. Ayniqsa Temuriylar davrida ona tilida ta'limga to'xtaladigan bo'lsak, bu davrda ona tiliga katta e'tibor qaratilgan. Masalan Amir Temurning "Temur tuzuklari asari" asari A.A.Semyonov, Ch.Re.E.G.Braun hamda boshqalarning so'zlariga qaraganda asar turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja'far poshshoning kutubxonasida saqlangan. Bundan tashqari Alisher Navoiyning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi ham, Husayn Boyqaroning turkiy tilda asarlar yozish to'g'risidagi farmoni ham o'sha davr hukmdorlarining mazkur tilga munosabatini yaqqol tasdiqlaydi. Fikrimizning dalili sifatida Zahridin Muhammad Bobur tomonidan turkiy tilda yaratilgan durdona asarlarni ham eslatib o'tishimiz o'rinlidir. XVII asr oxiri XVII asr boshlarida o'zbek tilida ta'limga to'xtaladigan bo'lsak, o'z davrining madaniy hayotida muhim o'rin tutgan Abulg'azi Bahodirxon XVII asrning dastlabki choragida hukmronlik qilgan, fors-tojik, arab, mo'g'ul tillarini yaxshi bilgan. Undan bizgacha meros qolgan "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asari turk tili, nafaqat turk tili, balki turkiy xalq tarixi haqida ma'lumot beradi. Bundan ma'lum bo'ladiki ona tilimiz bir qancha tarixni bosib o'tganligi, o'zining tarixiga, o'zining mavqeyiga ega bo'lgan ekan.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni millat tarixida tarixiy hodisa bo'ldi desak, yanglishmaymiz.

Chunki mazkur farmon asosida uzoq yillar yig'ilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yili oktabr oyida mutaxassislar tomonidan kuyinchaklik bilan aytilib, so'ngra qog'ozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning hukumat doirasida e'tiborga olinishi o'chib borayotgan umid uchqunlarini yana yondirdi.

Prezidentimiz tomonidan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish bo'yicha qator vazifalarning qo'yilishi tilimizga bo'lgan hurmatning yuksak namunasidir.

Farmonga muvofiq, 2020–2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. Asosiy yo'nalishlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- 2025 yilga qadar davlat maktabgacha ta'lim tizimida o'zbek tilli guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030 yilgacha esa 80 foizga yetkazish;
- 2030 yilga qadar umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida ona tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025 yilga qadar 120 taga, 2030 yilgacha esa 140 taga yetkazish;
- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida «O'zbekiston milliy qomusi» jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish;
- 2020 yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish;
- teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarining o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030 yilgacha 100 foizga yetkazish;
- 2025 yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030 yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish;
- dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;
- xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish;
- 2030 yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish;
- 2025 yilga qadar «O'zbek tilining do'stlari» klublari sonini 30 taga, 2030 yilgacha esa 40 taga yetkazish.

Tilimizga davlat miqyosida maxsus farmon asosida e'tibor qaratilayotgan ekan, uning jamiyatdagi nufuzi, o'rni, obro'sini oshirish, huquqiy maqomini belgilash, tom ma'nodagi davlat tili darajasiga olib chiqish uchun nima qilish kerak? Ya'ni davlat tili muhofazasi qanday bo'lishi lozim, degan masala ko'pchilikni o'ylantirishi, tabiiy. Buning uchun esa, birinchi navbatda, tilimizni har tomonlama mukammal ishlangan qonun vositasida himoyalab qo'yishimiz kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimida ham ona tilining o'rni alohida ahamiyatga ega. Inson bilimni eng avvalo o'z ona tilida chuqur anglaydi va o'zlashtiradi. Ona tilida sifatli ta'lim berish ilmfan rivojiga xizmat qiladi, milliy tafakkurni shakllantiradi.

Shuningdek, ona tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar milliy ilmiy maktabning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ona tilining ta'limdagi roli nafaqat bilim berish, balki milliy tafakkurni rivojlantirishdan iborat.

Ona tili xalqning ma'naviy va madaniy boyligini ham o'zida mujassam etadi. Badiiy adabiyot, folklor, maqol va matallar, og'zaki ijod namunalari til orqali yashab

keladi. Til boy bo'lsa, ma'naviyat ham boy bo'ladi. Shuning uchun ona tilini rivojlantirish milliy madaniyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Til orqali millat o'z tarixini, qadriyatlarini va dunyoqarashini saqlab qoladi.

Globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish zarurati ortib borayotgan bo'lsa-da, bu ona tilining mavqeini pasaytirishni anglatmaydi. Aksincha, zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo'lish uchun inson bir necha tilni bilishi mumkin, ammo u avvalo o'z ona tiliga tayanishi lozim. Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ona tilidan to'g'ri va faol foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ona tilining zamonaviy axborot makonida mustahkam o'rin egallashi uning yashovchanligini ta'minlaydi.

Yosh avlod tarbiyasida ham ona tilining o'rni beqiyosdir. Til orqali yoshlar milliy ruhda tarbiyalanadi, o'z ildizini anglaydi va vatanga muhabbat tuyg'ulari shakllanadi. Ona tiliga hurmat — vatanparvarlikning muhim ko'rinishidir. Ota-ona, ustoz va jamiyat vakillari yoshlarning ona tiliga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishi, ularda tilga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevishtirish, millatni sevishtirish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldosheva Dilorom Nigmatovna "O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Durdona" nashriyoti Buxoro-2021
2. Bahriddinova B.M. filologiya fanlari doktori. Ona tilimiz taraqqiyotida yangi bosqich: muammo va yechimlar
3. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.
4. Turdieva K, Axmedova D. O'zbek tili. T., 2007.
5. Ziyouz.com. Nizomiddin Mahmudov "Til mavqei – el mavqei" (1989), "Yoshlik" jurnali, 1988-yil, 6-son.
6. O'quv qo'llanma "Sotsiolingvistika", Toshkent "Universitet" 2014, 232 bet.